

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga **4 297,5** ming kishini tashkil etib, 2024-yil boshidan **89,0** ming kishiga ya'ni **2,1 %** ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1 570,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,5 %**), qishloq aholisi soni **2 726,9** ming kishini (**63,5 %**) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2024-yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **89,0 ming** kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **110,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **18,8 ming** nafarni tashkil etdi.
- Nikohlar soni **31,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **4,6 ming nafarni** tashkil etdi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida
Doimiy aholi soni
4 208 509 kishi
(2024-yil 1-yanvar holatiga)



110,9 ming
bola

Tug'ilganlar soni



18,8 ming
kishi

O'lganlar soni



13,3 ming
kishi

Ko'chib kelganlar
soni



16,4 ming
kishi

Ko'chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
4 297 462 kishi
(2025-yilning 1-yanvar holatiga)

Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2025-yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	Shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
Samarqand viloyati	4 297,5	1 570,6	2 726,9
Samarqand sh.	595,8	595,8	-
Kattaqo'rg'on sh.	95,9	95,9	-
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	177,2	68,0	109,2
Bulung'ur	206,9	45,5	161,4
Jomboy	194,1	42,4	151,7
Ishtixon	282,2	75,4	206,8
Kattaqo'rg'on	299,8	56,0	243,8
Qo'shrabot	144,4	13,3	131,1
Narpay	231,6	67,8	163,8
Payariq	279,8	77,5	202,3
Pastdarg'om	392,1	99,7	292,4
Paxtachi	154,5	29,5	125,0
Samarqand	278,6	17,3	261,3
Nurobod	165,8	18,5	147,3
Urgut	572,6	240,2	332,4
Toyloq	226,2	27,8	198,4

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni (2025-yilning 1-yanvar holatiga ming kishi)

	2024-y.	2025-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 208,5	4 297,5	102,1
Samarqand sh.	585,2	595,8	101,8
Kattaqo'rg'on sh.	94,9	95,9	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	173,2	177,2	102,3
Bulung'ur	202,0	206,9	102,4
Jomboy	189,5	194,1	102,4
Ishtixon	275,9	282,2	102,3
Kattaqo'rg'on	293,8	299,8	102,0
Qo'shrabot	141,9	144,4	101,8
Narpay	227,4	231,6	101,8
Payariq	273,3	279,8	102,4
Pastdarg'om	383,3	392,1	102,3
Paxtachi	152,3	154,5	101,4
Samarqand	272,8	278,6	102,1
Nurobod	162,7	165,8	101,9
Urgut	559,2	572,6	102,4
Toyloq	221,1	226,2	102,3


Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1 000 kishiga nisbatan promille	
	2023-y.	2024-y. ¹⁾	o‘shish, kamayish	2023-y.	2024-y. ²⁾
Tug‘ilganlar	113 986	110 865	-3 121	27,4	26,1
O‘lganlar	19 388	18 854	-534	4,7	4,4
Tabiiy o‘shish	94 598	92 011	-2 587	7,7	7,4
Nikohlar	32 209	31 425	-784	7,7	7,4
Ajralishlar	4 639	4 599	40	1,1	1,1

Tug‘ilish darajasi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni **110 865** bolani tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**113 986 bola**) nisbatan **3 121** bolaga yoki **3,1 foizga** kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda **26,1 promilleni** tashkil qildi va 2023-yilning shu davrida ham (**27,4 promille**) ni tashkil qildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1 000 aholi soniga nisbatan promille)



¹⁾ dastlabki ma'lumot

²⁾ dastlabki ma'lumot


Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning ayrim hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Ishtixon tumanida **23,2** dan, **24,0 promillega** ko‘payishi kuzatilgan.

Tug‘ilish. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **110,9** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda **1 000** aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti **26,1** promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davrida ham **27,4** promille bo‘lganligi kuzatildi.

Ma‘lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-dekabr oylarida)




O‘lim darajasi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni **18 854** kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**19 388 kishi**) nisbatan **534** kishiga yoki **2,8** foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti **4,4 promilleni** tashkil qildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **4,7 promille**).

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Bulung‘ur tumanida (**4,3 dan 4,5 promillega**), Narpay tumanida (**4,1 dan 4,3 promillega**), Nurobod tumanida (**3,9 dan 4,4 promillega**), Oqdaryo tumanida (**4,4 dan 4,5 promillega**) hamda Toyloq tumanida (**4,0 dan 4,1 promillega**) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan **31,4** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **7,4 promilleni** tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlari tomonidan **4,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti **1,1 promilleni** tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari FHDYo organlarida **31 425** ta nikohlar va **3 599** ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan **7,4 promille** nikoh (2023-yilning tegishli davrida **7,7 promille**) va **1,1 promille** ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida **1,1 promille**) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2023-y.	2024-y. ²⁾	2023-y.	2024-y. ²⁾
Samarqand viloyati	32 209	31 425	4 639	4 599
Samarqand sh.	3 742	3 636	910	828
Kattaqo'rg'on sh.	626	642	151	148
tumanlar:				
Oqdaryo	1 244	1 207	154	226
Bulung'ur	1 666	1 597	198	218
Jomboy	1 435	1 370	219	190
Ishtixon	2 253	2 156	256	244
Kattaqo'rg'on	2 292	2 262	301	286
Qo'shrabot	1 030	1 009	119	106
Narpay	1 545	1 610	238	272
Payariq	2 327	2 253	328	328
Pastdarg'om	3 030	3 032	465	427
Paxtachi	1 127	1 093	223	220
Samarqand	2 006	1 951	371	359
Nurobod	1 311	1 326	117	90
Urgut	4 748	4 472	366	424
Toyloq	1 827	1 809	223	233

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **13 330** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **16 388** kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


	2023-yilning yanvar-dekabr oylarida	2024-yilning yanvar-dekabr oylarida
Ko'chib kelganlar	10 880	13 330
Ko'chib ketganlar	15 198	16 388
Migratsiya saldosini	-4 318	-3 058

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus **3 058** kishiga (2023-yilning shu davrida minus **4 318** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Urgut (**minus 776**), Paxtachi (**minus 763**) va Kattaqo'rg'on (**minus 531**) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-dekabr oylarida

soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹Shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda
²dastlabki ma'lumot



Samarqand shahridagi demografik holat



Samarqand shahrining doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga **595,8** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **10,6** ming kishiga yoki **1,8 %** ga oʻsgan.

Samarqand shahri aholisining tabiiy harakati (1 000 aholiga nisbatan promille)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **12,7** ming bola tugʻilganligi qayd etilgan boʻlib, mos ravishda tugʻilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **21,6 promilleni** tashkil etdi (2023-yilning mos davrida **23,6promille** boʻlgan).

FXDYo organlarida 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **3 636** ta nikoh va **828** nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **6,2 promilleni** tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,3 promillega** kamaygan (2023-yilning mos davrida **6,5 promille** boʻlgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **1,4 promilleni** tashkil etib, 2023-yilning mos davrida **1,6 promille** boʻlgan.

Samarqand shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-dekabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

